

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PhD. 03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMEDOV SHOHJAHON KAHRAMON O'G'LI**

**CHAKANA SAVDO TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY  
XUSUSIYATLARI**

**08.00.12– “Mintaqaviy iqtisodiyot”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Urganch - 2024**

UDK: 338.332 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

**Ahmedov Shohjahon Kahramon o'g'li**

Chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....3

**Ахмедов Шохжаҳон Кахрамон угли**

Региональные особенности развития розничной торговой сети.....25

**Akhmedov Shokhjakhon Kahramon ugli**

Regional features of the development of retail trade network.....47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....51

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI PhD. 03/28.08.2020.I.55.03 RAQAMLI**  
**ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**AHMEDOV SHOHJAHON KAHRAMON O'G'LI**

**CHAKANA SAVDO TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDiy**  
**XUSUSIYATLARI**

**08.00.12– “Mintaqaviy iqtisodiyot”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Urganch - 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3579 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb - sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Ilyos Sultanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirov Abdurashid Madjitovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Norqobilova Feruza Abduxomidovna**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.08.2020.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_:\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks: (99 862) 224-57-00, e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**U.R.Matyakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari i.f.d., DSc., dotsent.

**T.J.Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD.

**B.Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., prof.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda innovatsion rivojlanish, globallashuv va integratsiya jarayonlarining ta'siri, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi raqobatni keskinlashuvi sharoitida chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. Aholini iste'mol tovarlari bilan ta'minlashning murakkablashuvi chakana savdoning an'anaviy shakllarini onlayn savdo shakllariga o'tkazish bosh muammo sifatida qaralmoqda. Chakana savdo tarmoqlari tomonidan 2024-yilga yillik savdo aylanmasi 30 trln. AQSH dollarini tashkil qilishi jahonning yirik WP Engine tahlil kompaniyasi tadqiqotlari asosida aniqlangan.<sup>1</sup> Global miqyosda rivojlanayotgan chakana savdo tarmoqlari dunyo aholisining kundalik ehtiyojlarini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Jahonda globallashuv jarayoni sharoitida chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy ta'minoti, jumladan, chakana savdoda hududiy xususiyatlarni tahlil qilish va takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish tamoyillari va zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, tarmoqda sof raqobat muhitini ta'minlash, mintaqalarda chakana savdo tarmog'i faoliyati samaradorligini oshirish hamda hududiy optimal joylashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda.

Yangi O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "Respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish. Bunda har bir hududda yirik ulgurji-savdo markazlari, jumladan logistika, muzlatgich, omborxonalarni tashkil etish, yirik tuman va shaharlarda kamida 3 tadan zamonaviy savdo markazlarini tashkil etish, qishloq joylarda ko'chma savdo nuqtalarini ko'paytirish, aholiga erkin savdoni amalga oshirish imkonini beruvchi chegaraoldi hududlarda savdo markazlarini tashkil etishni nazarda tutish"<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi chakana savdo tarmog'ini hududiy rivojlantirish, savdoda erkin raqobat muhitini shakllantirish, chakana savdo tarmog'ini iste'molchilarga yo'naltirilgan konsepsiya asosida tashkil etish, chakana savdoda sotish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuv va mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu jihatdan ushbu dissertatsiya mavzusi o'ta dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5813-son "Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"

---

<sup>1</sup> <https://wpengine.com/resources/woocommerce-related-products/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

hamda 2019-yil 28-yanvardagi PF-5443-son “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Keyingi yillarda chakana savdo tarmog‘ini barqaror rivojlantirish, tarmoq faoliyatini hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda optimal joylashtirish masalalariga xorijlik va mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida katta e’tibor qaratilgan.

Chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari ko‘plab xorijlik olimlarning ilmiy ishlanmalarida o‘z aksini topgan. Bu borada P.Kotler, G.Armstrong, K.L.Keller, P.Amit, B.Kameshvari, N.Arora, A.Tang, S.Lim, G. Alan, Millsteinlarning ilmiy ishlarini alohida qayd etish lozim<sup>3</sup>. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida chakana savdo tarmog‘ini hududiy joylashtirish, tarmoqni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishni nazarada tutuvchi yangi usul va uslublarni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishni hududiy xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq masalalar I.A.Dudakova, Y.V.Vaskin, D.V.Gornostayev, I.A.Korobeynikova, O.V.Nikolayeva, N.R.Epova, F.R.Sharopov singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan<sup>4</sup>. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari, tarmoqda marketing va reklama faoliyati, savdoda mijozlar bilan munosabatlarning ilmiy-nazariy jihatlari va uslubiy asoslari yoritilgan.

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan S.S.Gulyamov, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltaboyev, M.K.Pardayev, L.T.Abduxalilova, A.A.Fattaxov, N.Q.Yo‘ldoshev, Sh.J.Ergashxodjayeva, M.S. Qosimova, A.N. Samadov, I.S. Abdullayev,

---

<sup>3</sup> Kotler P. and Armstrong G., (2012), “Principles of Marketing”, Pearson Prentice Hall, 14th Edition.; Kotler P. and Keller K.L., (2012), “Marketing Management”, Prentice Hall, 14th Edition.; Amit P. and Kameshvari B., (2012), “A Study on Consumer Behaviour of Organized and Unorganized Retail Outlets in Vadodara City” International Journal of Engineering and Management Sciences, Vol. 3, (4), pg 466-474.; Arora N., (2012), “Introduction to Retail Industry”; Tang A., Lim S., (2008), “Retail Operations – How to Run Your Own Store”, Pearson Prentice Hall, 2nd Edition., 3 Millstein, Alan G. “2001: A Retail Odyssey.” Forecast (March/April 1996), p. 33.

<sup>4</sup> Дудакова, И. А. Формирование розничных торговых сетей: эволюция, проблемы, противоречия и перспективы (инвестиционный аспект) Текст. : монография / И. А. Дудакова; под ред. В. П. Федько / Шахты: изд-во ЮРГУЭС, 2005.-211 с.; Васькин Е.В. Инновационное развитие торгового предприятия в современных рыночных условиях: монография/ Е.В.Васькин. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство «Палеотип», 2005. - 132с.; Горностаев Д.В. Управление финансовой устойчивостью предприятий розничной торговли продуктами питания: Автореф. дис.к.э.н. Саратов, 2007. — 24 с.; Коробейникова И.А. Управление эффективностью торговых услуг: Автореф. дис. к.э.н. Краснодар, 2006. - 24 с.; Николаева О.В. Методические аспекты обеспечения устойчивого развития предприятий розничной торговли : Автореф. дис. к.э.н. Москва, 2012. - 27 с.; Эпова Н.Р. Развитие услуг розничной торговли в регионе Автореф. дис. к.э.н. Иркутск, 2004. - 24 с.; Ф.Р.Шаропов Методические аспекты обеспечения устойчивого развития предприятий розничной торговли Автореф. дис. к.э.н. Краснодар, 2006. - 24 с.

O.M.Pardayev, F.B.Abdukarimov, A.G'.Yakubov, B.I.Sharipov va boshqalarning ilmiy ishlarida chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va tarmoq faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar chuqur o'rganilgan<sup>5</sup>.

Yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari asosan chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishga hamda tarmoq faoliyatini takomillashtirish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ammo raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini o'rganish tarmoq faoliyatini zamonaviy tahlil usullari asosida o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish mualliflarning izlanishlarida to'liq aks ettirilmagan. Mazkur dissertatsiya mavzusi aynan shu jihatlarni e'tiborga olgan holda tanlandi va uning maqsadi hamda vazifalar shakllantirildi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya mavzusi Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-161-raqamli "Xalqaro standartlarni joriy qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatdoshligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish" mavzusidagi fundamental tadqiqotlar loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini ochib berish va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

chakana savdo tarmog'ini nazariy va uslubiy jihatlarini o'rganish;

chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish;

xorijiy mamlakatlarda chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning ilg'or tajribalarini o'rganish asosida ularni milliy iqtisodiyotda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

O'zbekiston chakana savdo tarmog'ini rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

Xorazm viloyatida chakana savdoni rivojlanishini baholash;

chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash;

chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.

---

<sup>5</sup>Bekmurodov A.Sh. va boshqalar. Strategik marketing: –T.: TDIU, 2010; Pardayev M.K., Abduxalilova L.T. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil. –T.: Sano-standart, 2019; Фаттахов А.А., Акуфриев А.И. Маркетинговые и логистические технологии в коммерческом бизнесе. –T.: Иктисодиёт дунёси, 2019; Ergashxodjayeva Sh.D., Samadov A.N., Sharipov I.B. Marketing. –T.: Iqtisodiyot, 2013; Qosimova M.S., Ergashxodjayeva SH., Abduhalilova L.T., Muhitdinova V., Yuldashev M. Strategik marketing –T.: O'qituvchi, 2004; I.S. Abdullayev Marketing (Darslik) – T.: "Innovatsiyon rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2020, 324 bet; Pardayev O. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2017, – 284 b.; Abdukarimov F.B. Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida): Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: SamISI, 2011.- 156 b. Yaqubov A.G'. Chakana savdo korxonalarini raqobatbardoshligini boshqarish tizimini takomillashtirish PhD avtoreferati. – Urganch, 2022. – 58 bet; B.I.Sharipov Sabzavot mahsulotlari B2C bozorida marketing faoliyatini takomillashtirish PhD avtoreferati. – Toshkent, 2023. –54 bet.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Xorazm viloyati chakana savdo tarmog‘i faoliyati tanlangan.

**Tadqiqot predmeti.** chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini taxlil qilish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida statistik taxlil, omilli tahlil, SWOT tahlil, so‘rov, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, tizimli tahlil, klaster tahlil ekonometrik modellashtirish va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

chakana savdo korxonalarining hududiy joylashtirishni zich (0,86-0,98), o‘rtachadan yuqori (0,71-0,83), o‘rtacha (0,54-0,66), o‘rtachadan past (0,35-0,47), sust (0,14-0,26) darajalarda baholash asosida optimallashtirish taklifi asoslangan;

hududlarda chakana savdo tarmog‘ini quyi, o‘rta va yuqori darajada rivojlantirishni sotuv kanallari asosida sotish nuqtalarini joylashtirish yo‘llari taklif etilgan;

Xorazm viloyat chakana tovar aylanmasi bo‘yicha barqaror rivojlangan (Urganch sh.), rivojlangan (Urganch t., Hazorasp t.) kam rivojlangan (Gurlan t., Xonqa t., Xiva t., Shovot t.), rivojlanayotgan (Bog‘ot t., Qo‘shko‘pir t., Yangiariq t.) hamda rivojlanishga muhtoj (Yangibozor t., Xiva sh., Tuproqqal‘a t.) guruhlariga ajratib baholash taklifi asoslangan;

chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishga ta‘sir qiluvchi xaridorlar soni, iste‘molchi daromadi, inflyatsiya darajasi omillarining ta‘siri bo‘yicha 2024–2027- yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ekonometrik modellar asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan mualliflik ta‘riflari va yondashuvlari ishlab chiqilgan;

hududlarda chakana savdo tarmog‘ini quyi, o‘rta va yuqori darajada rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan;

chakana savdo tarmog‘ini hududiy xususiyatlarini turli ko‘rsatkichlar orqali baholash mezonlari takomillashtirilgan;

chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining 2024–2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Olingan natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo‘llanilgan metodik yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma‘lumotlar bazasining rasmiy manbalari va monografik ko‘zatuv natijasida olingani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o‘tkazilganligi, shuningdek, olingan natijalarning O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati mahkamasi tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chakana savdo to‘g‘risidagi nazariy bilimlar doirasini kengaytiradi. Tadqiqotning nazariy-ilmiy xulosalari va metodik tavsiyalaridan Xorazm viloyati hokimligi tomonidan chakana savdor tarmog‘ini rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi va “Yo‘l xarita”larida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hamda sohasining jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan chakana savdoni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha mintaqaviy dasturlarni, chakana savdo sohasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, mintaqada savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot sohasida malakali kadrlar tayyorlash hamda "Servis faoliyati asoslari", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Iqtisodiyot nazariyasi" va "Korxonalar iqtisodiyoti" kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darslik tayyorlash, ularning o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarini takomillashtirishda keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chakana savdo korxonalarini hududiy joylashtirishni zich (0,86-0,98), o'rtachadan yuqori (0,71-0,83), o'rtacha (0,54-0,66), o'rtachadan past (0,35-0,47), sust (0,14-0,26) darajalarda baholash asosida optimallashtirish taklifi Xorazm viloyati hokimining "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 18-avgustdagi 71-12-0-Q/21-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 30-yanvardagi 15-340-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududlarda chakana savdo tarmog'ini quyi, o'rta, va yuqori darajalarda innovatsion rivojlantirish imkonini bergan;

hududlarda chakana savdo tarmog'ini quyi, o'rta va yuqori darajada rivojlantirishni sotuv kanallari asosida sotish nuqtalarini joylashtirish yo'llari bo'yicha taklifi "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 18-avgustdagi 71-12-0-Q/21-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 30-yanvardagi 15-340-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyatda onlayn savdo nuqtalari, ko'chib yuruvchi va statsionar savdo obyektlarini joylashtirishning ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkoniyatini yaratgan;

Xorazm viloyat chakana tovar aylanmasi bo'yicha barqaror rivojlangan (Urganch sh.), rivojlangan (Urganch t., Xazorasp t.) kam rivojlangan (Gurlan t., Xonqa t., Xiva t., Shovot t.), rivojlanayotgan (Bog'ot t., Qo'shko'pir t., Yangiariq t.) hamda rivojlanishga muhtoj (Yangibozor t., Xiva sh., Tuproqqal'a t.) guruhlarini baholashga ko'ra chakana savdoni rivojlantirish modeli bo'yicha taklifi Xorazm viloyati hokimining "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 18-avgustdagi 71-12-0-Q/21-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 30-yanvardagi 15-340-son ma'lumotnomasi). Natijada, chakana savdo tarmog'ini viloyat tuman va shaharlarida hududiy xususiyatlari bo'yicha rivojlanish darajasini aniqlashga erishilgan;

chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi xaridorlar soni, iste'molchi daromadi, inflyatsiya darajasi omillarining ta'siri bo'yicha ekonometrik modellar asosida ishlab chiqilgan 2024-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz

qiymatlari Xorazm viloyati hokimining “Ko‘chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 18-avgustdagi 71-12-0-Q/21-son Qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2024-yil 30-yanvardagi 15-340-son ma’lumotnomasi). Prognoz natijalariga ko‘ra, 2027-yilga borib, mintaqada amalga oshirilgan chakana savdoning o‘zgarmas narxlardagi real qiymati 5272,70 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 1,61 barobarga oshishi asosida o‘rtacha o‘shish sur‘ati 10,0 foizga oshgan. Mazkur prognoz ko‘rsatkichlari qiymatlaridan chakana savdo sohasini rivojlantirishga oid rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 3 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismlaridan iborat bo‘lib, uning hajmi 100 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti asoslanilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan va ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilib amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning nazariy asoslari, chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirish tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari hamda chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganilgan.

Bugungi kunda savdo tarmoqlarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Savdo tarmog‘i sifatida chakana savdo eng keng taraqqiy qilgan yo‘nalishlardan biridir. Chakana savdo tarmog‘ini rivojlanishi o‘z tarixiga ega bo‘lib, chakana savdoning ilk shakli bozorlardagi savdo bo‘lib, tovarlar sotib olish imkoniyatini yaratib bergan. Shu asosda dissertatsiyada savdo sohasining rivojlanishning bosqichlari o‘rganilib, chakana savdo ishlab chiqaruvchisi yoki yetkazib beruvchisidan mahsulotlarni izlab topish, ularni omborlarda saqlash, do‘konlarda keng namoyish qilish va nihoyat iste‘molchilarga sotishdan iborat bo‘lgan harakat ekanligi asoslab berildi.

O‘rganilgan yondashuvlarga asoslanib, muallif fikricha chakana savdo tarmog‘i sifatida hududiy jihatlar va xususiyatlarga ega bo‘lgan, aholining iste‘mol ehtiyojlarini qondiruvchi ayirboshlash shaklidir. Chakana savdo iqtisodiy faoliyat sifatida rivojlanib, bevosita xaridor va sotuvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi, ularni bir-biriga nisbatan aloqalarini mustahkamlash ta‘minlanadi. Natijada, chakana savdo quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ega bo‘lishi taklif etildi (1-rasm).



**1-rasm. Chakana savdo faoliyatining asosiy yo‘nalishlari<sup>6</sup>**

Mazkur rasimga asosan, chakana savdoni amalga oshirish uchun mohiyatiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar, asosiy vositalar va mehnat resurslari uchun investitsiya zarur


<sup>6</sup> Manba: Muallif ishlanmasi

bo'ldi, sotish hajmiga asosan daromadlar shakllanib, uni o'zi tarqatish xarajatlari va foyda kabi qismlarga ajratiladi.

Chakana savdo o'zini rivojlantirish tamoyillari va zamonaviy yondashuvlariga ega bo'lib, ushbu savdoni rivojlantirishda savdo korxonalari muhim o'rinni egallab, ma'lum bir tamoyillar asosida o'z faoliyatini olib boradi. Shunga ko'ra, dissertatsiyada chakana savdo korxonalarining iqtisodiy faoliyatni olib borishda tadbirkorlik qonun qoidalariga rioya qilinish masalasi ilgari surilgan. Bu borada chakana savdoni quyidagi vazifalarni hal qilish mumkinligi asoslandi:

- tovarlarga bo'lgan talab va ularning bozor taklifini o'rganish;
- savdo assortimentini shakllantirish va tovarlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish;
- tovar aylanmasini tashkil etish va xaridorlarga yetkazish;
- tovar turini kengaytirish uchun ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish;
- tovar zaxiralarini shakllantirish va talab darajasida saqlash;
- chakana savdo korxonalari reklama-axborot ishlarini amalga oshirish;
- tovarlar bilan savdo va texnologik operatsiyalarni amalga oshirish;
- sotilgan tovarlarga bo'lgan talabni shakllantirish;
- tovarlarni sotishning eng samarali usullarini tanlash;
- mijozlarga sotib olish va undan foydalanish jarayonini osonlashtiradigan bir qator xizmatlarni taqdim etish;
- aholining tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;
- tovarlarning harakatini tashkil etish va to'g'ridan-to'g'ri sotish joylariga yetkazib berish orqali oxirgi xaridorlarga yetkazib berish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish va hajmini oshirish maqsadida ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish;
- savdo texnologiyasini takomillashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash.

Bizni fikrimizcha, chakana savdo tarmog'ining joylashuviga quyidagi omillar ta'sir qiladi (2-rasm):



## 2-rasm. Chakana savdo tarmog'ining joylashishiga ta'sir qiluvchi omillar tarkibi<sup>7</sup>

Chakana savdo tarmog'ini, uning barcha turlarini rivojlantirish, yangilash, tuzilmasini takomillashtirish, uni ixtisoslashtirish va tiplashtirishni hisobga olgan holda oqilona joylashtirish qurilish va rekonstruksiya qilish xarajatlarini kamaytirish,

<sup>7</sup> Manba: Muallif ishlantmasi.

assortimentni tartibga solish va yuqori darajadagi savdoni ta'minlash imkonini beradi. Biroq, bozor munosabatlarining zamonaviy sharoitida chakana savdo korxonalarini o'z ichiga olgan kichik biznes vakillari tijorat ishlarini tashkil etishda yuqori tashabbuskorlik, malaka va tezkorlikni talab qiladi.

Fikrimizcha, chakana savdo qilishning yangi turlariga internet, elektron pochta, to'g'ri marketing, franchayzing va boshqalar kiradi hamda ular chakana savdoni amalga oshirish usuri bo'lib xizmat qiladi. Mazkur unsurlar savdo faoliyatini tanlash imkoniyatlarini ham yuzaga chiqaradi.

Chakana savdo tarmoqlari global biznes sifatida rivojlanib bormoqda. Zamonaviy chakana savdoning yuzi - brendlarning gullab-yashnashi, ko'p shakllar, globallashuv va global tarmoqlarning kapitallashuvidir<sup>8</sup>. Zamonaviy iste'molchining yuzi esa uning atrofidagi muhitning shakllanishi, individual qiyofaga, turmush tarziga bog'liq. Bu yerda asosiysi, biznesni samarali olib borishdir. Shunga asosan, dissertatsiyada mijozlar talablari va o'z tajribadan kelib chiqib, chakana savdoga quyidagi tendensiyalarning ta'sirlari tadqiq qilib chiqildi:

- *iste'molchi so'rovlarini faol shakllantirish*. Unga ko'ra, yirik ma'lumotlardan foydalanish, do'konning iste'molchi haqida joyida olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar miqdori ortib borishi va marketing vositalarining mavjudligi chakana sotuvchilarga iste'molchilarning xatti-harakatlarini yanada aniqroq va prognoz qilish imkonini beradi.

- *shaxsiylashtirish*. Ya'ni barcha ekspertlar mobil texnologiyalarni chakana savdo rivojlanishining hal qiluvchi omili deb biladilar. Kishilar do'konlarda o'z smartfonlaridan tobora ko'proq foydalanmoqda. Ushbu vositalar majmuasi do'konda avtomatik ravishda shaxsiy taklifni ishlab chiqish uchun xaridor haqida to'liq ma'lumot olishga yordam beradi.

- *3D bosib chiqarishdan foydalanish*. Ushbu bosib chiqarish texnologiyalari qanchalik arzon bo'lsa, ular chakana savdoda shunchalik ko'p qo'llaniladi va ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ham qismlarga aylantiradi.

- *interaktivlik*. Bu gadjetlar, ilovalar va boshqa texnologiyalardan foydalanish xarid qilish jarayonini faolroq qiladi. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari narxining kamayishi esa uni interaktiv qilish, savdo maydonini kengaytirish va shaxsiylashtirish imkonini beradi.

- *biznes jarayonlarining moslashuvchanligi*. Bu yirik chakana sotuvchilar xodimlar, resurslar va logistikani boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan ko'proq foydalanadilar. Bularning barchasi iste'molchilarning xohish-istaklariga tezroq javob berishga imkon beradi. Mazkur tendensiyalar bitta asosiy tendensiyaga to'g'ri keladi, ya'ni muvaffaqiyatli savdoning asosi mijozning istaklari va ehtiyojlarini to'liq bilishga aylanadi.

Shular bilan bir qatorda bugungi kunda jahon mamlakatlarida savdo korxonalarini raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishda klasterdan foydalanish tajribalari ham qo'llanilmoqda. Ushbu savdo klasterining asosiy tarkibiy elementlari tovar ishlab chiqaruvchilar, tovar va xizmatlarni reklama qiluvchilar, tovarlarni

---

<sup>8</sup> <https://www.retail.ru/articles/kakim-dolzhen-byt-sovremennyy-riteyl/>

saqlovchilar, tovarlarni yetkazib beruvchilar, tovarlarni sotuvchilar va savdo xizmatlarining mijozlarini o‘z ichiga oladi.

Bizni fikrimizcha, savdo korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishda savdo klasteri quyidagi ustunliklarni yaratadi:

birinchidan, savdo korxonalari va savdo xizmatlari iste’molchilari o‘rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish orqali ularning foydasini ko‘paytirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish va raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi;

ikkinchidan, savdo korxonalari tomonidan savdo xizmatlari ko‘rsatishni rivojlantirish bo‘yicha aniq mexanizmlarni yaratib beradi;

uchinchidan, savdo korxonalarining savdo klasteridan manfaatdorligini oshirish va ularni yaxlit bir tizim shaklida doimiy va samarali rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda chakana savdo tarmog‘ini rivojlanish dinamikasi va uni baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda chakana savdoni rivojlanish tendensiyalari, Xorazm viloyati chakana savdoni rivojlanishini baholash yo‘nalishlari hamda chakana savdo tarmog‘ini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi hududiy omillar tahlili yoritilgan.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan savdo-sotiq tarmog‘ini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bu borada respublikamizda sohani rivojlantirish masalasi ustuvor yo‘nalishga ko‘tarilgan va davlat tomonidan huquqiy asoslari mustahkamlanib, 2022–2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 21-maqсад qilib “Respublika hududlarida savdo va yo‘lbo‘yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish”<sup>9</sup> kabi keltirilgan vazifalarni izchil ravishda amalga oshirish belgilangan. Unga muvofiq, savdoni rivojlanish negizida chakana savdo sotishga ixtisoslashgan tarmoq sifatida o‘rinni egallashi bilan birga chakana savdo sohasiga oid bo‘lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tavsiflaydi.

Chakana savdoni ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda chakana savdo tovar aylanmasi hajmi ko‘rsatkichi barcha savdo tarmoqlarida sotish hajmi bilan ifodalanadi. Ushbu ko‘rsatkichni qiymati shaharlar va qishloq joylarida hisob-kitob qilinadi. Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida uning tarkibini oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari kabi ko‘rsatkichlar tashkil etadi. Shuningdek, chakana savdo faoliyatini holati aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi va chakana savdo tarmoqlarida tovar zaxiralari, chakana savdo obyektlari va ovqatlanish tashkilotlari soni kabi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi.

Dissertatsiyada chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ushbu ko‘rsatkich ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda barcha savdo tarmoqlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2010-yilda 21872,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, 270687,2 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan. Mazkur

---

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

ko'rsatkichni 2022-yildan 2010-yilga nisbatan hisoblaydigan bo'lsak, chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish sur'ati 11,3 martaga teng bo'lgan. O'sish sur'atiga asosan, chakana savdo sohasi ko'rsatkichlarini o'sib yoki kamayib borayotganligini bevosita tahlil qilish va shu orqali o'sish imkoniyatlarini aniqlash mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda 2010-2022-yillarda hududlar bo'yicha chakana savdo aylanmasi hajmi dinamik o'zgarishlarga egaligi bilan ajralib turadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### O'zbekistonda 2010-2022 yillarda hududlar bo'yicha chakana savdo aylanmasi hajmi (mlrd.so'm) haqida ma'lumot<sup>10</sup>

Hududlar	2010 y.	2012 y.	2014 y.	2016 y.	2018 y.	2020 y.	2022 y.
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>21872,8</b>	<b>36946,4</b>	<b>51033,3</b>	<b>81278,3</b>	<b>113971,7</b>	<b>168649,0</b>	<b>270687,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	711,3	1155,2	1691,2	2747,2	3998,4	5828,7	9557,9
Andijon viloyati	1704,2	2835,0	4065,1	6423,5	9176,1	13035,5	19046,9
Buxoro viloyati	1290,2	2259,7	3265,8	5138,3	7077,5	10136,9	15522,0
Jizzax viloyati	629,6	1161,9	1667,6	2686,9	3410,8	5066,0	7995,4
Qashqadaryo viloyati	1325,2	2567,6	3797,3	5850,4	7992,7	12081,4	18165,9
Navoiy viloyati	850,6	1469,5	2209,4	3486,1	4642,7	6443,7	10101,6
Namangan viloyati	1297,0	2166,2	3081,9	5009,5	6864,5	10320,5	17273,1
Samarqand viloyati	1683,0	3030,1	4337,9	7126,1	9987,5	15275,3	25342,5
Surxondaryo viloyati	1321,3	2280,0	3521,2	5637,8	8149,5	11311,0	17428,5
Sirdaryo viloyati	411,1	672,9	864,2	1453,8	2016,6	2991,6	4453,7
Toshkent viloyati	2306,3	4060,0	5356,6	8395,8	10806,9	15593,5	25250,0
Farg'ona viloyati	1911,6	3270,6	4355,5	7013,4	9956,2	14573,9	22448,5
Xorazm viloyati	1005,9	1566,6	2025,9	3102,1	4451,1	7061,8	11317,2
Toshkent shahri	5425,5	8451,1	10793,7	17207,4	25441,2	38929,4	66784,0

Mazkur jadvalga asosan, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha chakana savdo aylanmasi hajmi 2010-yilda 21872,8 mlrd.so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 270687,2 mlrd.so'mga teng bo'lgan yoki 12,3 martaga oshganligini kuzatish mumkin. Hududlar tarkibida Xorazm viloyati mintaqasida bo'yicha esa mos ravishda 1005,9 mlrd.so'mga va 11317,2 mlrd.so'mga teng bo'lgan yoki 11,2 baravarga oshganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, 2010-2022-yillarda respublikamiz hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmidan kelib chiqib, o'sish sur'atlariga ega bo'ldi. Ushbu ko'rsatkich o'sish sur'atiga ega bo'ldi (2-jadval).

<sup>10</sup> Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2>

**2010-2022 yillarda respublikamiz hududlarida chakana savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda<sup>11</sup>**

Hududlar	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>113,6</b>	<b>117,1</b>	<b>113,9</b>	<b>113,3</b>	<b>115,2</b>	<b>116,0</b>	<b>120,1</b>	<b>101,3</b>	<b>100,0</b>	<b>108,6</b>	<b>105,0</b>	<b>117,0</b>	<b>110,8</b>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	122,7	115,2	112,8	117,9	120,7	116,4	122,2	101,1	103,7	109,3	104,3	119,6	111,4
Andijon viloyati	107,9	117,5	112,8	115,4	114,7	115,2	118,1	100,4	101,3	104,4	106,8	108,9	109,7
Buxoro viloyati	107,7	121,9	114,5	114,2	117,3	115,9	119,3	100,5	100,2	104,6	104,9	115,5	108,0
Jizzax viloyati	121,8	127,2	116,8	117,8	116,9	118,8	119,9	99,3	92,5	105,3	109,9	115,1	109,7
Qashqadaryo viloyati	120,7	127,2	119,7	118,7	112,9	113,7	118,8	99,8	100,0	112,4	102,9	109,6	111,9
Navoiy viloyati	122,4	115,9	117,5	116,6	116,2	115,9	119,0	98,2	98,0	104,3	105,4	115,8	110,2
Namangan viloyati	114,4	119,8	111,3	115,2	113,7	116,2	122,6	101,7	97,8	110,2	105,2	120,5	113,3
Samarqand viloyati	122,3	118,9	121,0	114,2	117,5	116,4	121,3	100,7	101,2	106,3	111,4	118,3	113,5
Surxondaryo viloyati	122,7	119,3	112,5	117,5	116,9	117,8	119,4	101,0	101,6	106,8	102,1	112,3	112,0
Sirdaryo viloyati	121,2	116,1	112,6	105,7	116,0	118,5	124,8	100,0	99,1	107,3	106,9	116,3	103,7
Toshkent viloyati	107,3	123,1	113,3	109,3	112,8	116,4	118,3	100,0	93,4	113,8	97,1	118,6	109,8
Farg‘ona viloyati	118,8	117,7	114,5	110,5	111,4	114,7	121,3	101,9	101,7	106,0	106,2	118,6	105,6
Xorazm viloyati	121,3	113,3	109,2	110,4	111,0	111,1	121,2	101,2	101,4	110,2	110,9	113,8	112,9
Toshkent shahri	106,9	109,0	110,9	110,5	116,7	117,6	119,0	103,9	102,2	110,8	103,6	120,6	111,8

Ushbu jadvalga asosan, 2010-2022 yillarda respublikamiz bo‘yicha chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari 2010-yilda 113,6 foizga va 2022-yilga kelib 110,8 foizga teng bo‘lgan. Xorazm viloyati bo‘yicha esa mos ravishda 121,3 foiz va 112,9 foizga teng bo‘lgan. 2022-yilga kelib, eng yuqori o‘shish Samarqand viloyatiga (113,5 foiz) va Namangan viloyatiga (113,3 foiz) to‘g‘ri kelgan. Eng kam o‘shish esa, Sirdaryo viloyatiga (103,7 foiz) va Farg‘ona viloyatiga (105,6 foiz) to‘g‘ri kelgan.


Xorazm viloyatida chakana savdoni rivojlanishi baholandi. Avvalo, chakana savdo rivojlanishini baholash uchun turli bosqichlarga asoslangan holda sifat muammolarini hal qilish va maqbul strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Chakana savdo sohasining rivojlanishidan tashqari ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning faoliyatini ham baholashga erishish mumkin. Bugungi kunda chakana savdoda asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilmoqda. Xususan, KPI bo‘yicha chakana savdo do‘koni aylanmasi formulasi aylanmaning dinamik koeffitsienti (DK) faoliyatning turli davrlari uchun ko‘rsatkichlarni solishtirishga yordam beradi va quyidagi formula asosida hisoblanishi tavsiya etiladi:

$$DK = (TO \text{ (hozirgi)} * 100) / TO \text{ (hisobot)}$$

Formulaga ko‘ra, hisoblash har bir davr uchun savdo ma‘lumotlarini (TO) talab qiladi. Ushbu baholash chakana savdo tarmog‘i faoliyatidagi muammoli joylarni aniqlash imkonini beradi.

<sup>11</sup> Manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2>

Olingan natijalardan kelib chiqib, bizni fikrimizcha, mintaqada chakana savdo korxonasi qiyamatini baholash asosiy masala bo'lib, bu holatda unga xos yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Bu borada chakana savdo korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlarini boshqarish samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi (3-rasm).




**3-rasm. Chakana savdo korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlarini boshqarish samaradorligini baholash<sup>12</sup>**

Ushbu keltirilgan rasmga asosan, chakana savdo korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlarini boshqarish samaradorligini baholash baholash unsurlari, baholash usullari va baholash mezonlari orqali amalga oshiriladi.

Olib borilgan chakana savdo tarmog'ini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hududiy omillar tahliliga ko'ra, unga chakana tovar aylanishi, tovar zaxiralari kabi omillarning ta'sir qilish darajalari o'rganildi (4-rasm).

<sup>12</sup> Manba: Muallif ishlanmasi.




**4-rasm. Chakana savdo tarmog'ini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hududiy omillar tahlili<sup>13</sup>**

Mazkur omillar ta'siri va mazmunidan kelib chiqib, mintaqada chakana savdo tarmog'ini samarali va rejali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash mumkin bo'ladi hamda bu soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

